

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSAPP8860201343**

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Yo`l tamirlash bo`yicha shartnoma**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Boysun tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 14.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Boysun tuman yuridik
markazi
bosh yuristkonsulti:**



I.H.SAFAROV

15.11.2022



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida
GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektini yagona davlat reyestriga

"MUZRABOT METALL" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"MUZRABOT METALL" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

05.02.2015

YU-01012A

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

303089259

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Surxondaryo viloyati, Boysun tumani, Boysun, OLMAZOR,

Guvohnoma:

Surxondaryo viloyati, Boysun tumani, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI

tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):





Бойсун Ободонлаштириш бошкармаси ички танлов комиссиясининг йиғилиш

БАЁНИ № 5

" 2 "ноябр 2022 йил
(сана)

Бойсун тумани

Раис: Ж.Ғаффоров
Котиб: Ш.Норқобилова.
Аъзолари: Ф.Рахмонова
Х.Маматалиева
С.Мардонов
Р.Буриев

Кун тартибидаги масала:

1.Бойсун тумани Косиблар маҳалласи Мирзо Улугбек ички кучаларини жорий таъмирлаш ишларини бажариб бериш мақсадида ички танлов ўтказиш хақида







Эшитилди: Ушбу масала бўйича . Бойсун тумани Косиблар маҳалласи Мирзо Улугбек ички кучаларини жорий таъмирлаш ишларини бажариб бериш ноябр ойида энг яхши таклифларни танлаш учун ЛОТ 170784 билан эълон жойлаштирилиб эълон муддати 02.11.2022 йил тугади ва 02.11.2022 йил ООО MUZRABOT METALL 50,800,000 сум билан ғолиб бўлган электрон протокол шаклланган. ЎзР ВМнинг 20 майдаги №276 қарорига асосан ушбу протокол 2 иш кун муҳокамада турди ва шу даврда ҳеч қанда шикоят келиб тушмаганлигини инobatга олиб

Йиғилиш қатнашчилари ўзаро келишиб

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1.Бойсун тумани Косиблар маҳалласи Мирзо Улугбек ички кучаларини жорий таъмирлаш ишларини бериш ишлари учун "" MUZRABOT METALL " ОООси билан шартнома тузилиб, тўловлар амалга оширилсин.

2. Мазкур топширикни бажариш бош ҳисобчи С.Абдуллаев зиммасига юклатилсин.

Раис:  Ж.Ғаффоров
Котиб:  Ш.Норқобилова.
Аъзолари:  Ф.Рахмонова
 Х.Маматалиева
 С.Мардонов
 Р.Буриев

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 170784 на приобретение Бойсун тумани Косиблар махалласи Мирзо Улугбек ички кучаларини жорий таъмирлаш ишларини бажариш

Способ проведения электронный

Дата 02.11.2022

Время рассмотрения 02.11.2022 11:38

Закупочная комиссия Бойсун тумани Ободонлаштириш бошкармаси 100-бўл; 110-боб; 40-пар, (Далее – Комиссия) в составе:

Член комиссии	BO'RIYEV RUSTAM XOLBOYEVICH	Бош мутахасист	Бойсун Ободонлаштириш
Председатель комиссии	G'AFFOROV JABBOR KAXXOROVICH	Мухандис	Бойсун Ободонлаштириш
Секретарь комиссии	NORQOBILOVA SHAHNOZA SHAVKATOVNA	Иш юритувчи	Бойсун Ободонлаштириш
Член комиссии	RAHMONOVA FERUZA XURSANDOVNA	Бош мутахасист	Бойсун Ободонлаштириш
Член комиссии	MAMATALIYEVA XOLIDA ALIMOVNA	Кадрлар булими	Бойсун Ободонлаштириш
Член комиссии	MARDONOV SANJAR ASHUROVICH	Хисобчи	Бойсун ободонлаштириш

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 02.11.2022 года № лота 170784.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 70

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог
Подробное описание	Бойсун тумани Косиблар махалласи Мирзо Улугбек ички кучаларини жорий таъмирлаш ишларини бажариш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	50 845 757.00
Стартовая сумма	50 845 757.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танлов иштирокчиси ҳақида умумий маълумотлар

Тип: Бинарное значение

Описание: Танловда иштирок этувчи ташкилот хақида умумий маълумот гувоҳномаси, СОҲАВИЙ ҚУРИЛИШ-ПУДРАТ ТАШКИЛОТЛАРИ РЕЙТИНГИда автомобил йуллари ва куприкларда рейтинг курсаткичи мавжуд булиши шарт.Иш стажи 3 йилдан кам бўлмаган олий маълумотли қурилиш мутахассислигига эга бўлиши мажбурий раҳбарлардан 1 киши мавжудлиги.5 йил иш стажига эга 2 кишидан кам бўлмаган дипломга эга инженер-техник ходимларни

мавжудлиги. (участка бошликлари ва мастерлар).Ишлаб-чиқариш техника бўлимида 5 йил иш стажига эга дипломли 1 та мутахассисни мавжудлиги.Доимий равишда ишловчи 10 тадан кам бўлмаган малакавий ишчилар мавжудли

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MUZRABOT METALL	20	1	20	Экспертная		
УП BOYSUN TUMAN YO'LLARDAN FO	20	1	16	Экспертная		
SHARQONA LOYIXA MCHJ	20	1	10	Экспертная		

Критерий №2 Танловдаги объектга ўхшаш объектларда охириги йиллардаги иш тажрибаси (Далолатнома ёки хисоб фактура) илова қилиниши керак.

Тип: Бинарное значение

Описание: "Охириги йилларда давомиди Танловдагига ўхшаш ишларни ўз кучи билан бажариш: йилига N (N-Буюртмачи бошлангич нархнинг 50%) сўм ва ундан кўп. Танлов савдодагига ўхшаш профил бўйича охириги йили ўз кучи билан бажарган Далолатнома ёки хисоб фактуралар

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MUZRABOT METALL	20	1	20	Экспертная		
УП BOYSUN TUMAN YO'LLARDAN FO	20	1	20	Экспертная		
SHARQONA LOYIXA MCHJ	20	1	10	Экспертная		

Критерий №3 Бажарувчи корхона ушбу Объект смета хужжатлари ва қурилиш майдонини урганиш, қуздан кечирганлиги туғрисида маълумотнома

Тип: Бинарное значение

Описание: Бажарувчи корхона ушбу Объект смета хужжатлари ва қурилиш майдонини урганиш, қуздан кечирганлиги туғрисида маълумотнома

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MUZRABOT METALL	20	1	20	Экспертная		
УП BOYSUN TUMAN YO'LLARDAN FO	20	1	15	Экспертная		
SHARQONA LOYIXA MCHJ	20	1	0	Экспертная	Дисквалифицирован	Тақдим қилинган хужжат талабга жавоб бермайди

Критерий №4 Танлов иштирокчисининг молиявий аҳволи

Тип: Бинарное значение

Описание: "Иштирокчининг банкидан картатека йуклиги хакида ҳамда Солиқ органларида солиқдан қарзи йуклиги тугрисида тасдиқланган маълумот, Асосий воситаларнинг қолдиқ қиймати 100 млн. сўм ва ундан кўп Муддати ўтган кредиторлик қарздорлиги мавжуд эмаслиги ўтган йилда 20 млн.сўм фойдаси (солиқ тўлангунга қадар) мавжудлиги Иш ҳақи фонди 20 млн. сўм Тўловга қодирлик ёки қоплаш коэффициенти 1,25 ва ундан кўп Тўловга қодирлик ёки қоплаш коэффициенти Объектнинг буюртмачи белгиланган бошланғич нархининг 20 %гача миқдоридаги айланма маблағлар мавжудлиги (хизмат қилувчи банк томонидан тасдиқланган)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MUZRABOT METALL	20	1	20	Экспертная		
УП BOYSUN TUMAN YO'LLARDAN FO	20	1	20	Экспертная		
SHARQONA LOYIXA MCHJ	20	1	10	Экспертная		

Критерий №5 Машина ва механизмлар рўйхати

Тип: Бинарное значение

Описание: Лойиҳани бажариш учун зарур бўлган 5 та дан кам бўлмаган? Кўпи билан 20 йил олдин ишлаб чиқарилган шахсий (ёки лизинг шартномаси асосида) қурилиш машина ва механизмларини мавжудлиги (ижара шартнома асосидаги қурилиш техникаларининг баллари 30% камайтирилади). Лойиҳани бажариш учун зарур бўлган 10 бирликдан кам бўлмаган кичик механизация воситаларини мавжудлиги

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MUZRABOT METALL	20	1	20	Экспертная		
УП BOYSUN TUMAN YO'LLARDAN FO	20	1	20	Экспертная		
SHARQONA LOYIXA MCHJ	20	1	10	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
УП BOYSUN TUMAN YO'LLARDAN FO	50 845 757.00	50 845 000.00 UZS	50 845 000.00	00.00	50 845 000.00	29.10.2022 14:00:14	9.99115
ООО MUZRABOT METALL	50 845 757.00	50 800 000.00 UZS	50 800 000.00	00.00	50 800 000.00	29.10.2022 11:28:24	10

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
УП BOYSUN TUMAN YO`LLARDAN FO	81.9	9.99115	91.89115
ООО MUZRABOT METALL	90	10	100
SHARQONA LOYIXA MCHJ	Не прошел	Не прошел	Не прошел

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 170784 от 02.11.2022 года на приобретение Бойсун тумани Косиблар махалласи Мирзо Улугбек ички кучаларини жорий таъмирлаш ишларини бажариш определила победителем:

ООО MUZRABOT METALL
303089259

и резервный исполнитель: УП BOYSUN TUMAN YO`LLARDAN FO (201325110)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	G`AFFOROV JABBOR KAXXOROVICH	Согласен	
Член комиссии	RAHMONOVA FERUZA XURSANDOVNA	Согласен	
Член комиссии	MAMATALIYEVA XOLIDA ALIMOVNA	Согласен	
Член комиссии	MARDONOV SANJAR ASHUROVICH	Согласен	
Член комиссии	BO`RIYEV RUSTAM XOLBOYEVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

PUDRAT SHARTNOMASI

15«11»2022 yil.

108-8-110-OB/2022-son

Keyingi o'rinlarda "**Buyurtmachi**" deb yuritiladigan Surxondaryo viloyati Boysun tuman Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi direktor **Sh.Haydarov** bir tomondan va keyingi o'rinlarda "**Pudratchi**" deb yuritiladigan "**OOO MUZRABOT METALL** direktori **A.Karimov** ikkinchi tomondan, Surxondaryo viloyati **Boysun tumani (shaxar) hokimliklari** tasarufida bo'lgan ichki xo'jalik yo'llarida byudjet mablag'lari hisobidan ta'mirlash ishlari bo'yicha 2022 yil uchun dastlabki 02.02.2022 yilgi №49 Manzilli dasturiga hamda, 02.11.2022 yildagi № 170784 sonli lot Protokol qaroriga asosan Boysun tumani Kosiblar maxallasi Mirzo Ulug'bek ichki ko'chalarini 2022 yilda joriy ta'mirlash L 0.150 km (Asfalt yotqizish) ga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. Shartnoma mavzusi

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga loyixa-smeta va ekspertiza xulosasiga kelishilgan muddatlarga asosan **joriy ta'mirlash (shagal va asfalt koplama yetkizish)** ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

II. Ta'riflar

1.Mazkur shartnomada tariflar kullaniladi:

"ijro hujjatlari": - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun ma'sul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiya va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risida dalolatnomalar, ayrim ma'suliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risida dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risida dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar:

"qurilish maydoni": Mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasini ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilangan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi.

"vaqtinchalik ishlar": Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlar bajarish uchun zarur zarur bo'lgan har tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar.

"berkitilgan ishlar":- sifati va yakunligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar:

shartnomani narxini bo'lib chiqish: ishlarning har bir bosqichi yoki turlari qiymatining aniq belgilangan holda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

III. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

3. Mazkur shartnoma 02.11. 2022 yildagi №170784 lot ga asosan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar, KKS va ajratmalarini o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda **50 800 000.00 (Ellik million sakkiz yuz ming) so'mni** tashkil etadi. Shundan **QQSg'i 6 626 087 (Olti million olti yuz yigirma olti ming sakson etti) so'm** tashkil etadi

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:-qurilish qiymati va ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holati sabab bo'lganda;

-ishlar hajmi buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda; ob'ektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6 Tegishli asoslar mavjud bo'lganda o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

7. Loyiha-smeta xujjatlarida bajarilishi ko'zda tutilgan ish xajmlari Pudratchi tomonidan to'liq va sifatli qilib bajarilib, ayrim ish xajmlari va xarajatlari smeta xujjatlarida ko'zda tutilgan mablag'lardan amalda iqtisod qilinsa, ushbu mablag'ni ayrim xarajatlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararni va qo'shimcha bajarilishi lozim bo'lgan ish xajmlari xarajatlarini qoplash uchun ob'ektning umumiy qiymati doirasida asoslovchi xujjatlar asosida Buyurtmachini xabardor qilgan xolda yo'naltirilishi mumkin.

IV. Pudratchining majburiyatlari

8. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning 2-bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga "1a" ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda inshoot narxidagi ishlarni eng kamida 50%ni o'zining kuchlari bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

- "1" ilovaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallar, buyumlar, konstruksiyalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikalarini yetkazib berish, ularni qabul qilish tushirish omborga joylash va saqlash;

- qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

- buyurtmachini Pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mazmuni, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish; -obektda tasdiqlangan loyixaga muvofiq qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish; - qurilish tavakkalchiligini sug'urta qilish. -zarur xollarda ayrim ish turlarining bajarilishida loyiha-smeta xujjatlarida belgilangan mashina-mexanizimlar o'rniga, o'rindosh mashinamexanizimlardan foydalanilishi, belgilangan sifat va texnologik jarayonning buzilmasligini ko'rsatuvchi sifat laboratoryasi va loyihachi tashkilotning tegishli xulosasi asosida amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomaga imzo chekilgandan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari, asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlari, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish; qurilish maydonini qo'riqlanishini ta'minlash; qurilish jarayonida jalb qilingan ishchi xodimlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirib, ijtimoiy himoyasi va texnik xafsizligini ta'minlash. Mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarishni o'z zimmasiga oladi.

9. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan (qurilish ishlarining 50 %dan ko'p bo'lmagan) zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. Buyurtmachining majburiyatlari

10. Mazkur shartnomani bajarish uchun buyurtmachi: - mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga ilovaga muvofik ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy yo'l qurilish sifati texnik nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni amaldagi qonunchilik xujjatlariga muvofiq qabul qilib olishni ta'minlash;

- moliyalashtirish jadvaliga binoan pudratchiga "1b" ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish; - mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab, bir oy davomida pudratchiga pudrat ishlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;- mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

VI. Ishlarni bajarish muddati

11. Shartnoma milliy valyuta (so'mda) o'zaro hisob-kitob qilinganda tomonlar uchun imzolangan paytdan boshlab: keyinchalik EAV ga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada (so'mda) o'zaro hisob-kitob qilinganda shartnoma qonun hujjatlarga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi:
12. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq, birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi va aniqlangan muddatda ishlarni to'liq yakunlaydi..
13. Kurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran **30 kuni tashkil etadi.** (bajarish grafigiga asosan)
14. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlarning muddati hamda bajariladigan ishlar, ishlarni bajarish jadvaliga (1a-ilova) muvofiq amalga oshiriladi.

VII. Korrupsiyaga qarshi kurashish va boshqa shartlar

7.1. Taraflar shartnoma buyicha uz majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining Korupsiya qarshi kurashish to'g'risidagi qonun xujjatlarining talablariga zid keladigan xar qanday xarakatlarni amalga oshirmaydilarshu jumladan pora berish taklif kilmaydi tovlamachilik qilmaydi bevosita va bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora yani xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan xolda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan xarakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi .Taraflar ushbu xarakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

VIII. To'lovlar va hisob-kitoblar

15. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy qiymatining 30 % miqdorida, avans o'tkazadi.
16. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos hisoblanadi (1b-ilova)
17. Buyurtmachi va Pudratchi har oyda bajarilgan ishlarini "Ma'lumotnoma-hisob-faktura"ga asosan moliyalashtiriladi. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallariga muvofiq ob'ektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatning 70% gacha doirasida amalga oshiriladi.
18. Ob'ektning shartnomaviy joriy qiymatning qolgan qismi Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob qurilish tugallangandan keyin va ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin yoki mazkur shartnomada belgilangan kafolat muddati (bir yil) tamom bo'lgandan keyin ishlar qiymatining 5% gacha miqdorida, amalga oshiriladi:
19. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ektning Buyurtmachiga topshirilgunga qadar, ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.
20. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 30 kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bundan Buyurtmachi pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

IX. Ishlarni bajarish

21. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – Texnik kuzatuvchini tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan

materiallar va asbob uskunalar shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi. Aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish bo'yicha barcha choralarini ko'radi, muntazam ravishda olib borilayotgan ishlar yuzasidan Buyurtmachi ma'sul xodimlarini yozma ravishda xabardor qilib boradi.

22. Texnik kuzatuvchi ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davr mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'liqsiz tanishish huquqiga egadir.

23. Pudratchi Texnik kuzatuvchi ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

24. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limda ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasini va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

25. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini qurilishda Davlat nazorat inspeksiyasi bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

26. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

27. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

28. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 3 kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni bog'lash (privyazka) qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

29. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalari va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari o'lchamlari bo'lishi va ularning muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

30. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarning joylashi sxemalarini jadvallarni saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnomani bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

31. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

32. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va kommunikatsiya tizimlari sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spesifikatsiyalarga davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

33. Alohida berkitilgan konstruksiyalar va berkitilgan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilishni boshlashdan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

34. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan ma'sul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvini dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

35. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

36. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlarga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining rozilgisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isoblatlasi javobgar hisoblanmaydi.

37. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelshilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 36 bandining ikkinchi xat boshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

38. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarini supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydonda qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

39. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallaguncha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashni uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikirini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini o'z zimmasiga oladi.

X. Ishlarini qo'riqlash

40. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallaguncha va qurilish tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul kilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududidagi materiallar, asbob-uskunalar qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

41. Tiklangan bino va inshootlar shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulklar ob'ekt qabul qilib olingandan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

XI.. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

42. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtda mutanosib ravishda uzaytiriladi.

43. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oyda ko'p vaqtda cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

44. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XII. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish

45. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob'ektni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

46. Ob'ektni foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchi yozma bildirishnomasini Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 30 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

47. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan besh kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilagan tarkibdagi ikki nusxa ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plamini amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

48. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

XIII. Kafolatlar

49. Pudratchi: - barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarishni;

- loyiha hujjatlari hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlarga muvofiq bajarilgan barcha ishlar sifatini;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va kommunikatsiya tizimlari sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlariga, davlat standartlariga hamda texnik shartlariga muvofiqligini; - ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilinishni; ob'ektdan foydalanganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

50. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolat muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 1 oy etib belgilanadi. Ob'ekt tomoning kafolat muddati kamida 12 oy etib belgilanadi.

